

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.01/2025.27.12.B.04.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**ABDULLAYEVA MUYASSAR ISAKOVNA**

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA SANOGEN TAFAKKURNI**  
**RIVOJLANTIRISH METODIKASI**  
**(Bolalar anatomiyasi va fiziologiyasi fani misolida)**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (biologiya)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)**  
**DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Chirchiq – 2026**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Abdullayeva Muyassar Isakovna**

Bo‘lajak o‘qituvchilarda sanogen tafakkurni rivojlantirish metodikasi (“Bolalar anatomiyasi va fiziologiyasi” fani misolida).....3

**Абдуллаева Муяссар Исаковна**

Методика развития саногенного мышления будущих учителей (на примере дисциплины Анатомия и физиология детей)..... 25

**Abdullayeva Muyassar Isakovna**

Methodology for developing sanogenic thinking in future teachers (as an example of the science of children’s anatomy and physiology) .....51

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....55

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.01/2025.27.12.B.04.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**ABDULLAYEVA MUYASSAR ISAKOVNA**

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA SANOGEN TAFAKKURNI**  
**RIVOJLANTIRISH METODIKASI**  
**(Bolalar anatomiyasi va fiziologiyasi fani misolida)**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (biologiya)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)**  
**DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Chirchiq – 2026**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Ped4451 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya O‘zbekiston milliy pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.cspu.uz) hamda “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Ergasheva Gulruxsor Surxonidinovna**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:** **Rajabov Furqat Torakulovich**  
pedagogika fanlari doktori, professor v.b.

**Abdullayeva Muborak Maksumovna**  
biologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi PhD.01/2025.27.12.B.04.05 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2026-yil \_\_\_\_ - \_\_\_\_ soat \_\_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. Tel: (99870) 712-27-55; faks: (99870) 712-45-41; e-mail: chdpukengash@umail.uz)

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (\_\_\_\_raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. Tel: (99870) 712-27-55; faks: (99870) 712-45-41

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil \_\_\_\_ - \_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2026-yil “ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_dagi \_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**V. B. Fayziyev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, b.f.d., professor.

**A.Q.Bo‘ronov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, b.f.f.d., dotsent

**H.A.Mo‘minov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, b.f.d., dotsent.

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon miqyosida inson hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa yoshlarning ma'naviy, jismoniy va ruhiy salomatligini saqlash, ularni ijtimoiy barqaror, hayotiy sharoitlariga moslasha oladigan, mas'uliyatli shaxs sifatida tarbiyalash zamonaviy ta'lim oldida turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, ta'lim tizimida inson salomatligini mustahkamlashga qaratilgan ilmiy yondashuvlar orasida sog'liqni saqlashga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi ustuvor ahamiyat kasb etib, u o'quv jarayonining ta'lim oluvchilar salomatligiga ta'sirini tizimli ravishda o'rganishni nazarda tutadi. Sog'lom ta'lim muhitini shakllantirishga qaratilgan sanogen ta'lim muhitini tashkil etish orqali talaba yoshlarda ratsional fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, o'z salomatligiga nisbatan ongli va qadriyatli munosabatni qaror toptirish, shuningdek, ularning bo'lajak kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Jahon oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan strategik o'zgarishlar doirasida talaba yoshlarda sanogen tafakkurni rivojlantirishning pedagogik va psixologik mexanizmlarini takomillashtirish, ushbu jarayonga kreativ, modulli va refleksiv ta'lim texnologiyalarini joriy etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar keng ko'lamda olib borilmoqda. Xususan, bo'lajak o'qituvchilarda sanogen refleksiyani shakllantirishning samarali pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish, sanogen fikrlashni faollashtirish orqali ularning kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarlik darajasini oshirish, shu bilan birga, SMSC<sup>1</sup> (ma'naviy, axloqiy, ijtimoiy va madaniy) strategiyasi asosida akmeologik rivojlangan shaxsni tarbiyalash texnologiyalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mutaxassis kadrlar tayyorlash mazmunini mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ustuvorliklari bilan uyg'unlashtirish hamda oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlashni xalqaro standartlar darajasiga olib chiqishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunda xalqaro mezonlarga javob beradigan, kreativ va tizimli fikrlay oladigan, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatiga ega, intellektual va ma'naviy jihatdan yetuk mutaxassislarni tayyorlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Mazkur vazifalardan kelib chiqqan holda, bo'lajak o'qituvchilarda sanogen tafakkurni rivojlantirishning tarkibiy komponentlarini aniqlash, mavjud metodik imkoniyatlarni tizimlashtirish, fanlararo integratsiya hamda ratsional-emotiv yondashuvlar uyg'unligini ta'minlash, tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida sanogen tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan diagnostika tizimi va pedagogik modelni ishlab chiqish alohida dolzarblik kasb etadi. Bu esa Yangi O'zbekiston sharoitida sog'lom dunyoqarashga ega, sanogen tafakkurli va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning pedagogik imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

---

<sup>1</sup> John Viner. Providing for Pupils' SMSC Development: Identify opportunities and implement a whole school strategy. – UK, Optimus education. – 2013. . – P.240.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son Qarori, “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son farmoni, “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 2020-yil 6- noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonida keltirilgan Taraqqiyot strategiyasining to‘rtinchi va beshinchi yo‘nalishlarida sifatli ta’lim-tarbiya masalasi doimo e’tibor markazida bo‘lishi, “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasini amalga oshirish jarayonida yosh avlodni sog‘lom e’tiqod, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasiga ustuvor ahamiyat qaratilganini inobatga olgan holda hamda mazkur sohaga taalluqli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Ta’lim jarayonida shaxs dunyoqarashi va tafakkurini barqaror rivojlantirishning nazariy-tarixiy asoslari yuzasidan sharq mutafakkirlari Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy olimlarining qomusiy asarlarida mufassal bayon etilgan.

Respublikamiz olimlaridan B.Adizov, G.Aripova, R.Safarova, B.Umarov, B.Xodjayev, Ch.Shakirova, Sh.Shodmonova, F.Yuzlikayev, N.Egamberdiyeva, G.Baxodirovalarning tadqiqotlarida o‘quvchilarda yangicha tafakkur tarzini shakllantirish, talabalarda tarixiy tafakkurini rivojlantirishning falsafiy-metodologik jihatlari Sh.Kubayeva, J.Tulenov, L.Qurbonova, V.Xayrullayevalar tomonidan, M.Davletshin, Z.Nishonova, N.Safayev, R.Sunnatova, E.G‘oziyev, V.Karimova, Z.Abduraxmonova kabi psixolog olimlar tomonidan inson tafakkuri muammosining psixologik xususiyatlari masalalariga to‘xtalgan, tabiiy fanlarni o‘qitish jarayonida talabalarining kasbiy hamda metodik tayyorgarligini takomillashtirish masalalari J.Tolipova, M.Ataqulova, M.Boratova, A.Raximov, S.Salimova, M.Usmonova, G.Ergashevalar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan O.Grebenyuk, T.Grebenyuk, T.Vasileva, S.Morozyuk, Y.Miroshnik, Y.Orlovlar

tomonidan sanogen tafakkur konsepsiyasining nazariy-falsafiy asoslari, psixologik xususiyatlari hamda o'quvchilar va o'qituvchilarda sanogen tafakkurni shakllantirish masalalari, shaxsning psixologik barqarorligini ta'minlashda sanogen refleksiyaning o'rni muammolari L.Adamyan, L.Kananchuk, Y.Kraynova, V.Lisenko, S.Marchukova, M.Danina, V.Oparina, N.Pavlyuchenkova, A.Rossoxin, A.Rudakov kabi tadqiqotchi-olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan.

Xorijiy mamalakat olimlari tomonidan sanogen tafakkurni shakllantirish masalalari yuzasidan I.Arshava, X.Geyvin, Dj.Dyui, K.Izard, V.Klochko, S.Maddi, O.Osadko, N.Pil, R.Sternberg, K.Sternberg, A.Hilman, K.Xornilar tomonidan shaxsning hissiy kechinmalari, tafakkurning psixologik-pedagogik xususiyatlari, o'zini o'zi tushunish qobiliyati, kognitiv psixologiya, pozitiv fikrlashni va talabalarda sanogen tafakkurni shakllantirishning psixologik muammolari tadqiq etilgan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya O'zbekiston milliy pedagogika universiteti rejasining "Pedagogik yo'nalishlar va mutaxassisliklar bo'yicha ilg'or pedagogika texnologiyalarini joriy etish, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, elektron-ta'lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogika, multimedia va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish" ilmiy yo'nalishi doirasida bajarilgan (2020-2024 yy).

**Tadqiqotning maqsadi** Bolalar anatomiyasi va fiziologiyasi fanini o'qitish imkoniyatlari asosida bo'lajak o'qituvchilarning sanogen tafakkurini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

bo'lajak o'qituvchilarda sanogen tafakkurni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini takomillashtirish;

subyektiv va obyektiv omillar integratsiyasi asosida bo'lajak o'qituvchilarning sanogen tafakkurini rivojlantirishning metodik jihatlarini aniqlashtirish;

bo'lajak o'qituvchilarning sanogen tafakkurini rivojlantirishning kognitiv-faoliyatli modelini ishlab chiqish;

"Bolalar anatomiyasi va fiziologiyasi" fanini o'qitish jarayonida talabalarining sanogen tafakkurini rivojlantirish metodikasini ishlab ishlab chiqish hamda samaradorligini baholash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Bolalar anatomiyasi va fiziologiyasi fanini o'qitishda talabalarining sanogen tafakkurini rivojlantirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarida Toshkent davlat pedagogika universiteti, Qo'qon va Navoiy davlat pedagogika institutlari, Oriental nodavlat universitetining pedagogika va psixologiya, boshlang'ich ta'lim va maktabgacha ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan jami 622 nafar talaba ishtirok etdi.

**Tadqiqotning predmetini** Bolalar anatomiyasi va fiziologiyasi fanini o'qitish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning sanogen tafakkurini rivojlantirish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda muammoga doir adabiyotlarni qiyosiy-

tanqidiy o'rganish va tahlil etish; sotsiometrik metodlar (suhbat, anketa, so'rovnoma, test); pedagogik-psixologik metodikalar, modellashtirish, pedagogik eksperiment; natijalarni matematik va statistik tahlil etish kabi ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

sanogen tafakkurni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari Bolalar anatomiyasi va fiziologiyasi fanini o'qitish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda salomatlikka yo'naltirilgan ta'limni loyihalash qobiliyatini fiziologik mini-amaliyotlar, dinamik tanaffuslar, keys-tahlillar, stress-menejment elementlarini tatbiq etish orqali shakllantirish asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak o'qituvchilarda sanogen tafakkurni shakllantirish metodikasi dars maqsadlari va didaktik mazmunga salomatlikka ta'sir komponentini fanlararo integratsiya orqali singdirish bilan psixofiziologik barqarorlik, sog'lom turmush tarzi kabi kasbiy kompetensiyalarni tizimli shakllantirish asosida takomillashtirilgan;

talabalarda sanogen tafakkurni rivojlantirishning kognitiv-faoliyatli modeli kasbiy tayyorgarlik jarayoniga biologik-fiziologik bilimlarni pedagogik antropologiyaga amaliy yo'naltirilgan holda integratsiya qilish orqali hayotga mas'uliyatni tarbiyalashga qaratilgan salomatlikka bog'liq o'quv vaziyatlarini modellashtirish asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak o'qituvchilarda sanogen tafakkurni rivojlanganlik samaradorligini Bolalar anatomiyasi va fiziologiyasi fanining ta'lim-tarbiyaviy imkoniyatlaridan tizimli foydalanishga ko'ra faoliyat natijalarini baholashning boshlang'ich (motivatsion-kognitiv), tayanch (ratsional-emotiv), yuqori (shaxsiy-ijodiy) hamda eng yuqori (sanogen refleksiya) darajalarda aniqlashning maqsadga muvofiqligi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilarda o'z aksini topgan:

“Yosh anatomiyasi, fiziologiyasi va gigiyenasi” va “Bolalar anatomiyasi va fiziologiyasi” nomli darsliklar yaratilgan;

“Yosh fiziologiyasi va maktab gigiyenasi” (Возрастная физиология и школьная гигиена) nomli o'quv qo'llanma yaratilgan;

“Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi fanidan amaliy mashg'ulotlar uchun talaba ish daftari” nomli uslubiy ko'rsatma tayyorlangan;

bo'lajak o'qituvchilarda sanogen tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan maxsus o'quv kursi dasturi ishlab chiqilgan va amaliy samaradorligi aniqlangan;

bo'lajak o'qituvchilar sanogen tafakkurini rivojlantirishga doir ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** muammoni o'rganishda falsafiy, metodologik, metodik, pedagogik va psixologik yondashuvlarga hamda sanogen tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha respublikamiz va xorij olimlarining tadqiqotlar natijalariga asoslanilgani; o'zaro bir-birini to'ldirib boruvchi tadqiqot usullarining tadqiqot maqsadi va vazifalariga mos holda tanlanganligi hamda foydalanilganligi, tadqiqot tavsifi va tahlil natijalarining miqdor hamda sifat jihatidan ta'minlanganligi; matematik-statistik tahlil metodlari yordamida olingan natijalarning qayta ishlanganligi, shuningdek, tajriba-sinov



ishlarining representativligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tamonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ta'limni axborotlashtirish sharoitida talabalarda sanogen tafakkur va talabalar tafakkurini rivojlantirishga doir ma'lumotlarning talqiniga oid zamonaviy mulohazalar ko'lamining kengaytirilganligi, pedagogik-psixologiyaning yangi xulosalar bilan boyitilganligi, ya'ni bo'lajak o'qituvchilarda sanogen tafakkurini rivojlantirish jarayonining metodik imkoniyatlarining aniqlanganligi, sanogen tafakkurni rivojlantirishda integrativ va ratsional-emotiv yondashuvlar uyg'unligini ta'minlash zaruriyati nazariy materiallar asosida boyitilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ta'lim jarayonida talabalarining sanogen tafakkurini rivojlantirishning zamonaviy uslubiy, elektron-metodik ta'minoti (darslik, elektron darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar nashr ettirilganligi) takomillashtirilganligi, pedagogik faoliyatda sog'liqni saqlash texnologiyalaridan samarali foydalanishning metodik imkoniyatlari kengaytirilganligi hamda bolalar salomatligini saqlashning zamonaviy texnologiyalarining amaliy imkoniyatlarini aniqlashtirilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Bo'lajak o'qituvchilarda sanogen tafakkurini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga doir o'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida:

sanogen tafakkurni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari Bolalar anatomiyasi va fiziologiyasi fanini o'qitish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda salomatlikka yo'naltirilgan ta'limni loyihalash qobiliyatini fiziologik mini-amaliyotlar, dinamik tanaffuslar, keys-tahlillar, stress-menejment elementlarini tatbiq etish orqali shakllantirishga oid taklif va tavsiyalar "Bolalar anatomiyasi va fiziologiyasi" darsligi mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 17-iyuldagi 314-son buyrug'i, №454524003144855707-raqamli nashr guvohnomasi). Natijada, bo'lajak o'qituvchilar sanogen tafakkurini rivojlantirishning didaktik va metodik imkoniyatlarini oshirishga erishilgan;

bo'lajak o'qituvchilarda sanogen tafakkurni shakllantirish metodikasi dars maqsadlari va didaktik mazmunga salomatlikka ta'sir komponentini fanlararo integratsiya orqali singdirish bilan psixofiziologik barqarorlik, sog'lom turmush tarzi kabi kasbiy kompetensiyalarni tizimli shakllantirishga oid tavsiyalar "Возрастная физиология и школьная гигиена" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 14-avgustdagi 418-son buyrug'i, №418-170-nashr guvohnomasi). Natijada, bo'lajak o'qituvchilarning sog'lom turmush tarzi bilan bog'liq kasbiy kompetensiyalarini rivojlanshtirishga erishilgan;

talabalarda sanogen tafakkurni rivojlantirishning kognitiv-faoliyatli modeli kasbiy tayyorgarlik jarayoniga biologik-fiziologik bilimlarni pedagogik antropologiyaga amaliy yo'naltirilgan holda integratsiya qilish orqali hayotga mas'uliyatni tarbiyalashga qaratilgan salomatlikka bog'liq o'quv vaziyatlarini modellashtirishga oid uslubiy tavsiyalar "Yosh anatomiyasi, fiziologiyasi va

gigienasi” darsligi mazmuniga singdirilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 17-iyuldagi 314-son buyrug‘i, №314-48 raqamli nashr guvohnomasi). Natijada, talabalarning sanogen tafakkurini rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirishga erishilgan.

bo‘lajak o‘qituvchilarda sanogen tafakkurni rivojlanganlik samaradorligini Bolalar anatomiyasi va fiziologiyasi fanining ta’lim-tarbiyaviy imkoniyatlaridan tizimli foydalanishga ko‘ra faoliyat natijalarini baholashning boshlang‘ich (motivatsion-kognitiv), tayanch (ratsional-emotiv), yuqori (shaxsiy-ijodiy) hamda eng yuqori (sanogen refleksiya) darajalarda aniqlashning maqsadga muvofiqligi yuzasidan taklif va tavsiyalar “Bolalar anatomiyasi va fiziologiyasi” darsligi mazmuniga singdirilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 17-iyuldagi 314-son buyrug‘i, №454524003144855707-raqamli nashr guvohnomasi). Natijada, bo‘lajak o‘qituvchilar sanogen tafakkurini zamonaviy usullarda baholash imkoniyati ta’minlangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 29 ta ilmiy ish, jumladan 2 ta darslik, 1 ta o‘quv qo‘llanma, 1 ta metodik qo‘llanma, 1 ta mualliflik guvohnomasi, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta (xorijiy jurnalda 4 ta, respublika jurnallarida 5 ta) maqola chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 151 sahifani tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, aprobsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Bo‘lajak o‘qituvchilarda sanogen tafakkurni rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida talabalarda sanogen tafakkurni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo ekanligi, bo‘lajak o‘qituvchilarning sanogen tafakkurini rivojlantirishning tarkibiy komponentlari va pedagogik-psixologik xususiyatlari hamda mazkur jarayonning mavjud metodik imkoniyatlari mazmuni yoritilgan.

Sanogen tafakkur insonning ichki dunyosida o‘zini o‘zgartirish, o‘zini o‘zi tarbiyalash va rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, bunda fikriy jarayonlarni boshqarish va nazorat qilish ratsional hamda emotsional yondashuv uyg‘unligini


ta'minlash, jarayon mohiyatini anglashda falsafiy-ijtimoiy va pedagogik-psixologik nazariyalarni o'zida aks ettiradi.

Sanogen tafakkurni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari Bolalar anatomiyasi va fiziologiyasi fanini o'qitish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda salomatlikka yo'naltirilgan ta'limni loyihalash qobiliyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Sanogen tafakkur — shaxsning o'z jismoniy, ruhiy va ijtimoiy salomatligini saqlash va mustahkamlashga qaratilgan ongli munosabati bo'lib, u pedagogik faoliyatda ta'lim muhitini sog'lomlashtirish, o'quv yuklamalarini optimallashtirish va o'quvchilarning psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olishni talab qiladi.

Bolalar anatomiyasi va fiziologiyasi fanining mazmuni tabiatan salomatlikka yo'naltirilgan bilimlar tizimiga tayanganligi sababli, ushbu fanni o'qitish jarayonida faol harakatli o'qitish texnologiyalarini qo'llash sanogen tafakkurni rivojlantirishning samarali didaktik vositasi hisoblanadi. Xususan, mavzularni interaktiv usullar, rolli o'yinlar, modellash, vaziyatli topshiriqlar asosida tashkil etish bo'lajak o'qituvchilarda bola organizmining funksional imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta'limni rejalashtirish ko'nikmasini shakllantiradi.

Shuningdek, o'quv mashg'ulotlarida dinamik tanaffuslar, stress-menejment elementlarini tatbiq etish ham sanogen tafakkurni rivojlantirishning muhim didaktik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Sanogen tafakkurga asoslangan faol harakatli o'qitish, dinamik tanaffuslar va stress-menejment elementlarini Bolalar anatomiyasi va fiziologiyasi fanini o'qitish jarayoniga integratsiya qilish bo'lajak o'qituvchilarda salomatlikka yo'naltirilgan ta'limni loyihalash, amalga oshirish va baholash kompetensiyalarini kompleks ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Sog'lom tafakkurni rivojlantirish muammosining nazariy-metodologik va mavjud holati tahliliga ko'ra shaxsda sanogen tafakkurni rivojlantirish jarayoni quyidagi tamoyillar asosida amalga oshirilishi lozim (1-rasmga qarang).



**1-rasm. Bo'lajak o'qituvchilarda sanogen tafakkurni rivojlantirish tamoyillari**

Demak, sanogen tafakkurni bo'lajak o'qituvchilar tayyorlash tizimida maqsadli ravishda rivojlantirish zamonaviy ta'limning strategik vazifalaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Dissertatsiyaning **“Bo'lajak o'qituvchilarda sanogen tafakkurni rivojlantirishning amaliy-metodik tizimi”** deb nomlangan ikkinchi bobida kognitiv yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning sanogen tafakkurini rivojlantirish mazmuni va uning faoliyatli modeli, “Bolalar anatomiyasi va fiziologiyasi” fanini o'qitish jarayonida talabalarda sanogen tafakkurni rivojlantirishning metodik shart-sharoitlari, talabalarning sanogen tafakkurini rivojlantirishda sog'liqni saqlash texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari bayon qilingan.


Oliy ta'lim mazmuni va uning o'ziga xos xususiyatlari talabalarning sanogen tafakkurini rivojlantirishda quyidagi jihatlarni inobatga olishni taqozo etadi: 1) talabalarning mavjud bilimlari darajasi va tuzilishini tushunish; 2) sog'lom fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonini qanday tashkil etishni belgilash; 3) sog'lom fikrlashga doir ma'lumotlarni mavjud bilimlar bilan mazmunli bog'lash; 4) talabalar tomonidan refleksiv ko'nikmalarning o'zlashtirganlik darajasini aniqlash; 5) sog'lom fikr yuritish ko'nikmalarining talabalar tomonidan tizimli ravishda o'zlashtirish amaliyotini tashkil qilish. Bunda avvalo ta'limiy amaliyotni yo'lga qo'yish uchun faoliyat modelini aniqlashtirish (maqsad, vazifa, metodologik yondashuvlar, faoliyatni tashkil etish bosqichlari, diagnostik vositalar majmui, baholash mezonlari, kutiladigan natija) hamda didaktik ta'minotni ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shu sababli refleksiv, kognitiv va integrativ yondashuvlarga tayangan holda bo'lajak o'qituvchilarning sanogen tafakkurini rivojlantirishning kognitiv-faoliyatli modeli ishlab chiqildi (2-rasmga qarang).

Mazkur model pedagogika ta'lim sohasidagi bakalavriat bosqichida o'qitiladigan Bolalar anatomiyasi va fiziologiyasi fanini o'qitish jarayoniga tayangan holda loyihalandi.

Modelning ilmiy yangiligi shundaki, unda talabalarda sanogen tafakkurni rivojlantirish kasbiy tayyorgarlik jarayoniga biologik-fiziologik bilimlarni pedagogik antropologiya nuqtai nazaridan amaliy yo'naltirilgan holda integratsiya qilish orqali ta'minlanadi. Bunda inson organizmining funksional imkoniyatlari, psixofiziologik holatlar va ularning pedagogik faoliyatga ta'siri haqidagi bilimlar hayotga mas'uliyatni tarbiyalashga qaratilgan salomatlikka bog'liq o'quv vaziyatlarini modellashtirish orqali o'zlashtiriladi. Ushbu o'quv vaziyatlari talabalarni real pedagogik sharoitlarda salomatlikni saqlash, stress omillarini oldindan anglash va sog'lom qaror qabul qilishga o'rgatishga xizmat qiladi. Bo'lajak o'qituvchilarning sanogen tafakkuri ko'nikmalarini rivojlantirishning kognitiv-faoliyatli modeli pedagogika ta'lim sohasining bakalavriat bosqichida o'qitilishi belgilangan Bolalar anatomiyasi va fiziologiyasi fanini o'qitish jarayoniga urg'u berish orqali loyihalashtirildi.

Model quyidagi tarkibiy bloklarni o'z ichiga oladi:


**maqsadli blok**, unda ijtimoiy buyurtma, faoliyat maqsadi va vazifalari, metodologik yondashuvlar va sanogen tafakkurni rivojlantirish tamoyillari aks ettirilgan;



**2-rasm. Bo'lajak o'qituvchilarda sanogen tafakkurni rivojlantirishning kognitiv-faoliyatli modeli**

**mazmunli blok**, pedagogik va psixologik fanlar, Bolalar anatomiyasi va fiziologiyasi fani hamda maxsus kurs mazmunini fanlararo integratsiya asosida birlashtiradi; **tashkiliy-metodik blok**, sanogen tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiluvchi shakllar, metodlar, vositalar va sog‘liqni saqlash texnologiyalarini qamrab oladi; **natijaviy blok**, sanogen tafakkur rivojlanishining komponentlari, bosqichlari, darajalari va kutilgan natijalarni baholashni ta’minlaydi.

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib va oliy ta’lim mazmunini umumlashtirish orqali talabalarda sanogen tafakkurni rivojlantirishning metodik tizimi ishlab chiqildi (3-rasmga qarang).



**3-rasm. Bo‘lajak o‘qituvchilarning sanogen tafakkurini rivojlantirish jarayonining metodik tizimi**

Metodik tizimning asosiy maqsadi — muloqot va hayotiy vaziyatlarga muvofiq holda talabalarda sanogen tafakkur ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan maqsadli pedagogik faoliyatni amalga oshirishdan iborat. Mazkur maqsad doirasida talabalarda sog‘lom fikrlash, hissiy holatlarni boshqarish, axborotni ongli baholash, ijtimoiy munosabatlarda konstruktiv pozitsiyani saqlash hamda kasbiy faoliyatda salomatlikka yo‘naltirilgan qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish nazarda tutiladi. Natijada ishlab chiqilgan metodik tizim bo‘lajak o‘qituvchilarni nafaqat fan sohasi bo‘yicha bilimli mutaxassis sifatida, balki sog‘lom fikrlashga ega, psixofiziologik jihatdan barqaror va ijtimoiy mas’uliyatli shaxs sifatida tayyorlashga xizmat qiladi.

Auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda bo‘lajak o‘qituvchilarning sanogen tafakkurini rivojlantirish jarayoniga tizim sifatida yondashadigan bo‘lsak, u o‘zining asosiga ko‘ra tartibli, oldindan rejalashtirilgan, mashg‘ulotni tashkil qiluvchi tarkibiy qismlarning aniq joylashuv o‘rni, tezkor aloqadorlik, doimo rivojlanib, takomillashib va o‘zgarib borish; ikki tomonlama – tarbiyaviy ish va tarbiyalanganlik; aniq maqsadga yo‘naltirilganlik; qayta tashkillanish hamda ko‘p tarmoqli tuzilishga ega. Auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarning pedagogik

imkoniyatlarini inobatga olgan holda “Bo‘lajak o‘qituvchilarda sanogen tafakkurni rivojlantirish” nomli maxsus kursni o‘qitishning tashkiliy metodik asoslari quyida taqdim etiladi (1-jadvalga qarang).

## 1-jadval

### “Bo‘lajak o‘qituvchilarda sanogen tafakkurni rivojlantirish” nomli maxsus kursni o‘qitishning tashkiliy metodik asoslari

<b>KURSNING MAQSADI:</b>	Nazariy va amaliy mashgʻulotlar jarayonida boʻlajak oʻqituvchilarning sanogen tafakkurini rivojlantirish		
<b>Maxsus kurs mashgʻulotlarining tavsifiy xususiyatlari</b>	Emotsional obrazli		
	Intellectual-ijodiy		
	Refleksiv tajribani shakllantirish		
	Korreksion-rivojlantiruvchi		
<b>Mashgʻulotlarni tashkil etish tamoyillari</b>	Ratsional-emotiv yondashuvning ustivorligini taʼminlash; subyektivlik, oʻzini oʻzi anglash, introspeksiya, refleksivlik, ilmiylik, sogʻlomlashtiruvchi taʼlim muhitini yaratish, aqliy va jismoniy faoliyat turlarining uygʻunligini taʼminlash		
<b>Kurs faoliyatini tashkil etish bosqichlari</b>			
<b>Tayyorlov:</b> faoliyat maqsadi va vazifalarini belgilash; oʻzaro hamkorlikda faoliyatni tashkil etish uchun qulay muhitni yaratish.	<b>Metodik:</b> oʻquv jarayonini tashkil etish bosqichlarini belgilash; sanogen va patogen fikrlash mazmuniga oid oʻquv materiallarini tayyorlash; oʻqitishning interfaol metod va usullarini ajratib olish.	<b>Kognitiv:</b> sanogen va patogen tafakkur mazmuniga doir maʼlumotlarning oʻzlashtirilishi; oʻquv faoliyati birliklarining qaror topishi.	<b>Amaliy:</b> talabalarni amaliy faoliyat jarayoniga jalb etish; oʻquv topshiriqlari va refleksiv texnika mashqlarini bajarish orqali sanogen fikr yuritish koʻnikmalarini hosil qilish.
<b>Mashgʻulotlarni tashkil etishning shakl, metod, vosita va texnologiyalari</b>			
<b>Shakllar:</b> auditoriyadan tashqari ommaviy, guruhiy va individual mashgʻulotlar, ilmiy kutubxonalarda ishlash, mustaqil ish topshiriqlari, individual maslahatlar, turli xil tadbirlar	<b>Metodlar:</b> suhbat, debat, dialog, ijtimoiy-pedagogik trening, refleksiv texnikalar, video-metod, oʻzini oʻzi tahlil qilish, ishonitirish, ustanovka, oʻzini oʻzi boshqarish, tavsiya berish, shaxsiy portfolioni yaratish, assotsiativ oʻquv topshiriqlari, muammoli tavsifdagi suhbat, empatik baholash		<b>Vositalar:</b> oʻquv materiallari, sanogen tafakkur boʻyicha kitob va qoʻllanmalar, nutq, matn, texnik vositalar, video dars; ijodiy (amaliy) topshiriqlar; ijtimoiy tarmoq materiallari; koʻrgazmali va animatsion taqdimotlar
<b>Sogʻliqni saqlash texnologiyalari</b>			
1. Tashkiliy-pedagogik. 2. Psixologik-pedagogik. 3. Oʻquv-tarbiyaviy. 4. Sogʻlomlashtiruvchi. 5. Ijtimoiy moslashuv va shaxsni rivojlantiruvchi texnologiyalar. 6) Mind fitness			
<b>Metodik shartlar</b>	1. “Bolalar anatomiyasi va fiziologiyasi” fanini oʻqitishning oʻziga xos xususiyatlarini inobatga olish. 2. Hamkorlikdagi faoliyat orqali mustaqillikni taʼminlash. 3. Talabalarda refleksiv baholashni, ayniqsa fikrlashdagi moslashuvchanlikni rivojlantirish. 4. Tashqi taʼsirlarga ijobiy reaksiya koʻnikmalarini maqsadli ravishda oʻzlashtirish. 5. Oʻzini oʻzi boshqarish koʻnikmalarini qaror toptirish.		
<b>Kutiladigan natija</b>	Sanogen fikrlash qobiliyati yuqori darajada rivojlangan, oʻzini oʻzi adekvat baholash va takomillashtirish bilan bogʻliq boʻlgan bilim va koʻnikmalarga ega tayyor mutaxassis		

Bo'lajak o'qituvchilarning sanogen tafakkurini rivojlantirishda tashkiliy-pedagogik, psixologik-pedagogik, o'quv-tarbiyaviy, sog'lomlashtiruvchi, ijtimoiy moslashuv va shaxsni rivojlantiruvchi hamda "Mind fitness" kabi sog'liqni saqlash texnologiyalari, "Konseptual jadval", "Kichik guruhlarda hamkorlikda ishlash", "Bir qadam oldinga", "Jonli soat", "Tafakkur mashqi", "Fasl egalari", "Piramida", "Krossens" metodlari va refleksiv texnika mashqlaridan foydalanish faoliyat samaradorligini ta'minlashga xizmat qildi. Quyida ushbu metodlarni qo'llashga oid uslubiy tavsiyalardan namunalar taqdim etamiz.

**"Tafakkur mashqi".** Bu metod fanlararo integratsiyaga asoslangan holda talabalarni ijodkorlikka yo'naltiradi. Buning uchun talabalar kichik guruhlariga bo'linadilar va ularga dastlab o'qituvchi tomonidan sog'lom turmush tarziga doir she'riy parchalar eshittirilib, mazmunini izohlash topshirig'i beriladi. Masalan:

Uyqusiz o'tkazma tun-u kuningni,  
Hordiq ham chiqargin vaqtida bedard.  
Uyqusizlik bilsang, chaqirar nogoh,  
Hazm-u, asab bilan bog'liq qancha dard.

Yoki:

Kamxo'raklik hamma dardga davodir,  
Aslida ko'p dardga parhez shifodir. (Hiloliy)


Kichik guruh a'zolari she'riy parchalar mazmunini izohlab, o'z fikr-mulohazalarini bildiradilar. O'qituvchi javoblarni to'ldirib, ularni rag'batlantirgan holda she'rxonlikka da'vat etadi. Guruhlar bir-birlariga namunadagi kabi she'rlar taqdim qilib, mazmunini izohlash orqali inson salomatligi uchun zarur xulosalarga ega bo'ladilar. Shu tarzda mavzular ijodiy yondashilgan holda o'zlashtiriladi hamda talabalarining sanogen tafakkuri rivojlanadi. 6 daqiqa vaqt ajratiladigan mazkur metod nafaqat talabalarni, balki o'qituvchilarni ham izlanishga, o'z ustida ishlashga undaydi va guruhda sog'lom ijodiy muhit yaratishga xizmat qiladi.

**"Fasl egalari".** Guruhda bahor, yoz, kuz, qish faslida tug'ilganlar aniqlanib, 4 ta kichik guruh tashkil etiladi, ularning o'tirgan o'rni o'ng tomondan fasllar ketma-ketligida joylashtiriladi va guruhlariga o'qituvchi tomonidan oq varaqlar tarqatiladi, guruh a'zolari o'z fasllariga mos bo'lgan daraxt rasmini tasvirlaydi. Albatta, stol ustida rangli qalamlar bo'lishi shart. Kichik guruhlar o'rtasida o'tilgan mavzuga oid qiziqarli savol-javoblar tashkil etiladi va faol ishtirok etgan guruh fasllarga mos rangli rasmlar tushirilgan kartochkalar bilan rag'batlantiriladi. Eng ko'p bahor tasviri aks etgan rag'bat kartochkasini yig'gan guruh g'olib deb topiladi. Bu talabalarga yaxshi kayfiyat bag'ishlagani holda darsning tabiat bilan uyg'unligini ifodalaydi, do'stlar davrasi kengayadi hamda talabalarining sanogen tafakkurini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu metoddan yangi mavzuni o'zlashtirish, o'tilgan mavzuni mustahkamlash va uyga berilgan topshiriqlarni samarali tekshirishda foydalanish mumkin.

**"Krossens".** "Krossens" so'zi "ma'nolar kesishuvi" deb tarjima qilinib, unda jami to'qqizta rasm beriladi. Topshiriq– tasvirlarning o'zaro aloqasi orqali krossensni tushuntirish, hikoya – assotsiativ zanjirni tuzish. To'qqizta tasvir shunday joylashtirilganki, har bir rasm oldingisi va keyingisi bilan aloqada bo'ladi, markaziy tasvir esa bir vaqtning o'zida bir nechtasini ma'no jihatdan birlashtiradi.



Aloqalar yuzaki yoki chuqur bo'lishi mumkin, ammo har qanday holatda ham bu mantiqiy va ijodiy fikrlash, tasavvur kuchini rivojlantirish uchun qiziqarli mashqdir. Ushbu metodni har bir mashg'ulotda qo'llash mumkin.



Masalan, ushbu metodni “Bolalar anatomiyasi va fiziologiyasi” fanidan “Ichki sekretiya bezlarining yoshga oid xususiyatlari” mavzusida qo'llaydigan bo'lsak, talabalar yuqorida keltirilgan to'qqizta kvadratli maydondan foydalanib, rasmlar ketma-ketligi asosida hikoya tuzish orqali tasvirda ko'rsatilgan belgilar qaysi ichki sekretiya beziga tegishli ekankaligini aniqlaydi (4-rasmga qarang).



**4-rasm. “Krossens” metodining ifodalanishi**

Bu metod talabalarning mavzuni qay darajada o'zlashtirganlarini aniqlash bilan birga ularning o'zlari va o'zgalarning sog'ligi haqida qayg'urishi, bir-birlari bilan fikr almashishi, sog'liqni saqlash bilan bog'liq bo'lgan tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bo'lajak o'qituvchilarning sanogen tafakkurini rivojlantirishda refleksiv texnika mashqlarini qo'llash alohida ahamiyatga ega.

Namuna sifatida quyida “**Kayfiyat odami**” mashqini keltirib o'tamiz.

**Maqsad:** “Yurak - qon tomir tizimining yosh xususiyatlari” mavzusini o'zlashtirish jarayonida talabalarning joriy emotsional holatini aniqlash va sanogen tafakkur elementlarini shakllantirish.

Ishtirokchilar soni: 25-30 nafar bo'lishi maqsadga muvofiq.

**Kerakli jihozlar:** yurakdan ketuvchi va yurakka keluvchi qon tomirlarining sxematik rangsiz tasviri tushirilgan A3 formatdagi plakat; qizil va ko‘k rangli qalamlar; magnitlar yordamida plakatni doskaga mahkamlash vositalari.

**Izoh:** qizil rang – emotsional holatning salbiy (bezovtalik, zo‘riqish, agressiya) ekanini; ko‘k rang – emotsional holatning ijobiy (xotirjamlik, barqarorlik) ekanini ifodalaydi.

#### **Mashqni bajarish tartibi:**

O‘qituvchi talabalarni navbat bilan doska oldiga taklif qiladi. Har bir ishtirokchi o‘z joriy hissiy holatiga mos deb hisoblagan rangdagi qalamni tanlaydi. Shundan so‘ng talaba yurak-qon tomir tizimining anatomiyasi yoki fiziologiyasiga oid bitta qisqa ma’lumot aytadi va o‘z javobiga muvofiq yurak yoki qon tomirining belgilangan qismini tanlangan rangda bo‘yaydi.

Mashq davomida barcha ishtirokchilarning harakatlari umumiy ko‘rinishda namoyon bo‘lib, guruhning umumiy emotsional foni vizual tarzda shakllanadi. O‘qituvchi mashg‘ulot jarayonida talabalarning hissiy holatlaridagi o‘zgarishlarni kuzatadi, umumiy psixologik muhitni tahlil qiladi hamda mashg‘ulot so‘ngida ayrim talabalarni ochiq muloqotga yoki yakka tartibda suhbatga taklif etadi (ayniqsa, emotsional holatida keskin o‘zgarish kuzatilganlar bilan).

#### **Metodik ahamiyati:**

Ushbu mashq auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda qo‘llash uchun maqbul bo‘lib, talabalarning nafaqat kayfiyatini aniqlash, balki ularning fanga nisbatan munosabati, o‘quv faoliyatidagi emotsional barqarorligi hamda sanogen tafakkurni rivojlantirish darajasini baholash imkonini beradi. Mashq orqali fiziologik bilimlar hissiy holat bilan bog‘lanib, talabalarda salomatlikka yo‘naltirilgan ongli munosabat shakllanadi.

Dissertatsiyaning **“Bo‘lajak o‘qituvchilarda sanogen tafakkurni rivojlantirish metodikasining samaradorligi”** deb nomlangan uchinchi bobida bo‘lajak o‘qituvchilarning sanogen tafakkurini rivojlantirishga doir tajriba-sinov ishlari mazmuni, metodikasi, natijalari va ularning statistik tahlili keltirilgan.

Tajriba-sinov ishlariga bakalavriatning pedagogika va psixologiya, boshlang‘ich hamda maktabgacha ta’lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan jami 622 nafar respondent-talabalar jalb etildi.

Quyidagi jadvalda oliy ta’lim muassasalari va tajriba-sinov ishlarida ishtirok etgan respondent-talabalar haqida ma’lumotlar o‘z aksini topgan (2-jadvalga qarang).

#### **2-jadval**

##### **Pedagogik tajriba-sinov ishlarida ishtirok etgan respondent-talabalar soni**

<b>Tajriba-sinov guruhleri</b>	<b>Toshkent davlat pedagogika universiteti</b>	<b>Navoiy DPI</b>	<b>Qo‘qon DPI</b>	<b>Orental universiteti</b>
<b>Tajriba guruhi</b>	76	80	81	74
<b>Nazorat guruhi</b>	76	80	81	74
<b>Jami:</b>	152	160	162	148

Tajriba-sinov ishlari uchta: *aniqlovchi* (2021/2022-yy.), *shakllantiruvchi* (2022/2023-yy.), *yakunlovchi* nazorat (2023/2024-yy) bosqichlarda amalga oshirildi.

Birinchi — aniqlovchi bosqichda bo‘lajak o‘qituvchilarda sanogen (sog‘lom) tafakkurni rivojlanganlik darajasining mavjud holatini aniqlashga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat tashkil etildi. Ko‘zda tutilgan maqsadga erishishda oliy ta‘lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning “Bolalar anatomiyasi va fiziologiyasi” fanidan ta‘lim jarayonida sanogen tafakkurini rivojlantirish, kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash va sog‘liqni saqlash texnologiyalaridan amaliy foydalanish kompetensiyalarini shakllanganlik darajasini pedagogik kuzatish, suhbat, anketa so‘rovnomalari yordamida o‘rganildi.

Ikkinchi — shakllantiruvchi bosqichda Bolalar anatomiyasi va fiziologiyasi fani doirasida tashkil etilgan auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarga ustuvor e‘tibor qaratildi. Avvalo, fan dasturida keltirilgan mavzular mazmuni chuqur tahlil qilinib, talabalarda sanogen tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan «Bo‘lajak o‘qituvchilarda sanogen tafakkurni rivojlantirish» nomli maxsus mashg‘ulotlar kursi ishlab chiqildi va ta‘limiy amaliyotga joriy etildi. Ushbu bosqichda professor-o‘qituvchilar va talabalar faoliyatini bevosita va bilvosita pedagogik kuzatish, refleksiv texnika mashqlarini bajarish, sog‘lom va xavfsiz turmush tarzi madaniyatini shakllantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar o‘tkazildi.

Uchinchi — yakunlovchi nazorat bosqichida Bolalar anatomiyasi va fiziologiyasi fani asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda sanogen tafakkurni rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan takomillashtirilgan metodika hamda maxsus kurs doirasida o‘tkazilgan amaliy mashg‘ulotlar natijalari kompleks tahlil etildi. Sanogen tafakkur xususiyatlarining rivojlanganlik darajasini baholash uchun maxsus mezonlar va ko‘rsatkichlar tizimi ishlab chiqildi. Shakllantiruvchi tajriba-sinov mashg‘ulotlari natijalari amaliyotga tatbiq etildi va tajriba-sinov ishlarining yakunlovchi bosqichi amalga oshirildi. Ushbu bosqichda olingan natijalarning ishonchliligini aniqlash maqsadida matematik-statistik tahlil usuli sifatida Styudent t-mezonidan foydalanildi.

Talabalarning sanogen tafakkurini rivojlantirish ko‘rsatkichlari qatoriga quyidagilar ham kiritildi: “Bolalar anatomiyasi va fiziologiyasi” kursi doirasida nazariy va amaliy bilimlarni o‘zlashtirish, kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan sifatlarning qaror topgani; o‘z funksional holati va o‘quvchilarning jismoniy faoliyatini maqsadli shakllantirish va boshqarish; o‘zining va boshqalarning salomatligini nazorat qilish va saqlash bilan bog‘liq ko‘nikma va malakalarni doimiy rivojlantirib borish. Mashg‘ulotlar yanada qiziqarliroq bo‘lishi uchun trening, blits-so‘rov, suhbat, savol-javob, bahs-munozara, diskussiya, ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar tashkil etildi hamda amaliy topshiriqlar ustida ishlandi.

